

KORPORATIV MIJOZLAR XODIMLARINING ISH HAQI VA UNGA
TENGLASHTIRILGAN BOSHQA TO'LOVLARNI BANK KARTALARIGA O'TKAZISH
LOYIHASI UCHUN OMMAVIY OFERTA

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur korporativ mijozlar xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni bank kartalariga o'tkazish loyihasi bo'yicha shartnoma (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) «KDB Bank O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatining Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2-qismiga muvofiq, barcha korporativ mijozlar uchun quyida ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzish yuzasidan rasmiy taklif hisoblanadi.

1.2. Shartnoma korporativ mijoz (keyingi o'rinlarda – Korxona) tomonidan ushbu Ofertaning 2.2-bandida ko'rsatilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hamda kuchga kirgan hisoblanib, ushbu harakatlar korporativ mijozning ushbu Ofertada belgilangan shartlar asosida Shartnomani tuzishga roziligini tasdiqlaydi.

1.3. Ofertaning amaldagi va oldingi versiyalari Bankning veb-saytida quyidagi manzilda joylashtirilgan: <https://kdb.uz>

1.4. Asosiy atamalar va ta'riflar:

Bank kartasi, uning saqlovchisiga to'lov infratuzilmalari orqali to'lovlarni amalga oshirish yoki naqd pul olish, valyuta almashinuvi va bank kartasining emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi to'lov vositasi;

Ish haqi loyihasi – Bankning korxona xodimlarining karta hisob raqamlariga pul mablag'larini (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni) naqd pulsiz shaklda o'tkazish, shuningdek ushbu ommaviy Oferta asosida korxona xodimlariga bank kartalarini chiqarish xizmatlari;

Ish haqi – ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar;

Korporativ mijoz/Korxona - rezident yuridik shaxslar hamda ularning vakolatxonalari va (yoki) filiallari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, faoliyatini O'zbekiston Respublikasida amalga oshiruvchi norezident yuridik shaxslar (diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar va ularning filiallari, tijorat faoliyatini amalga oshirmaydigan boshqa xorijiy tashkilotlar vakolatxonalari hamda doimiy muassasalar), tovar-xom ashyo birjasining ochiq elektron savdolarida qatnashuvchilar, uyushgan savdolarida aksiya va korporativ obligatsiyalarni sotuvchi (sotib oluvchi) chet ellik investorlar, shuningdek kripto-birjada kripto-aktivlar savdolari ishtirokchilari bo'lgan norezident yuridik shaxslar;

Mijoz – Korxona xodimi, jismoniy shaxs, Korxona bilan belgilangan tartibda muayyan yoki noma'lum muddatga mehnat shartnomasini tuzgan shaxs. «Korxona xodimlari» deganda, korxona uchun fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomalar asosida ishlarni bajarayotgan (xizmatlar ko'rsatayotgan) shaxslar nazarda tutilmaydi;

Karta hisobraqami – mijoz nomiga «KDB Bank O'zbekiston» AJ da ochilgan bank hisobraqami bo'lib, uning mablag'lari bank kartasi orqali boshqarilishi mumkin;

Tranzit hisob raqami – Korxona xodimlarining Ish haqi bank kartalariga o'tkazilishi uchun tranzit hisob raqami;

Bank amaliyot kuni - bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha to'lov hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt;

Masofaviy bank xizmatlari tizimi (matnda keyinchalik – MBX tizimi) – Bank mijozlarining Bank bilan xavfsiz va tezkor axborot almashinuvi, hisobotlar shakllantirilishi va bank bo'limiga bormasdan hisoblar bo'yicha moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan dasturiy-qurilma majmuasi.

Tegishli tekshiruv – Mijozning shaxsini identifikatsiya qilish va tekshirish, shuningdek Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarning maqsadi va xususiyatini o‘rganish, jumladan pul mablag‘lari manbai to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish va qayd etish, ularning Bankka taqdim etilgan hujjatlarga (ma‘lumotlarga) muvofiqligini tekshirish maqsadida. Bank Mijozni Tegishli Tekshirish jarayonini quyidagilarga muvofiq amalga oshiradi: qonunchilik talablari va Bankning ichki hujjatlari, jumladan tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat (komplayens) qoidalar; BMT Xavfsizlik Kengashi («UNSC»), Yevropa Ittifoqi («EU»), AQSh Moliya vazirligi Xorijiy Aktivlarni Nazorat qilish boshqarmasi («OFAC»), Moliyaviy Xizmatlar Komissiyasi («FSC»), Moliyaviy Jinoyatlarga Qarshi Kurashish Agentligi («FinCEN») va AQSh Savdo vazirligi Sanoat va Xavfsizlik Byurosi («BIS») tomonidan qabul qilingan sanksiya dasturlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Maxsus Vakolatli Davlat Organi me‘yoriy ko‘rsatmalari.

II. Shartnoma predmeti

2.1. Shartnoma predmeti Korxona tomonidan ushbu Oferta shartlarini qabul qilish orqali amalga oshiriladigan harakatlarni bajarishilishi, Bank tomonidan Tranzit hisobraqamini ochish va Mijozlarning karta hisobraqamlariga ish haqini o‘tkazishdan iborat.

2.2. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish Korxona tomonidan mazkur Ofertaning 1-ilovasidagi shaklga muvofiq Korxona rahbarining imzosi hamda Korxona muhri tushirilgan holda (agar mavjud bo‘lsa) ariza berish orqali yoki MBX tizimidan elektron ariza berish orqali amalga oshiriladi.

2.3. Korxona xodimlarining ish haqlarini karta hisobraqamlariga o‘tkazish bilan bog‘liq barcha operatsiyalar Bankning amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi.

2.4. Korxona xodimlarining ish haqi Bank tomonidan ish haqi loyihasi doirasida ochiladigan tranzit hisob raqam(lar)iga Korxona tomonidan o‘tkaziladi. Korxona tomonidan tranzit hisob raqam(lar)iga o‘tkaziladigan mablag‘ miqdori Korxona xodimlarining bank kartalariga ish haqi o‘tkazish reestri miqdoriga teng bo‘lishi kerak. Tranzit hisobraqamiga o‘tkazilgan mablag‘ miqdori reestrning umumiy miqdoriga mos kelmasa, Bank Korxona xodimlarining bank kartalariga ish haqini o‘tkazmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Korxona majburiyatlari:

3.1.1. Bankka Korxona xodimlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasini ilova qilgan holda, ish haqi loyihasi doirasida bank kartalarini chiqarish uchun xodimlarning o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan Arizalarini taqdim etish;

3.1.2. Ofertaning 3.1.1-bandiga muvofiq Arizalarni taqdim etish bilan bir vaqtda, bankning MBX tizimi yoki korporativ elektron pochta kanallari orqali, Bankka elektron shaklda (excel formatida) Korxona xodimlari uchun karta hisobraqamlarini ochish uchun 2-ilovadagi shaklga muvofiq ro‘yxatni (reestrni) taqdim etish;

3.1.3. Bankning amaldagi Tariflari va ushbu ommaviy Oferta shartlariga muvofiq, bank kartalarini tayyorlash uchun Bank komissiyasini to‘lash;

3.1.4. Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq, har bir bank kartasi uchun bank kartalarini qayta chiqarish bo‘yicha Bankning harajatlarini qoplash:

a) agar bank kartasi Korxona tomonidan noto'g'ri taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan bo'lsa;

b) agar bank kartasi quyidagi 3.2.2-bandda qayd etilgan harakatlar amalga oshirilganidan so'ng, Korxonaning moddiy javobgar shaxsga topshirilgandan keyin yo'qolgan yoki buzilgan bo'lsa.

3.1.5. Ish haqi tranzit hisobraqam(lar)iga o'tkazilishidan oldin, Bankka elektron shaklda bankning MBX tizimi orqali yoki 3-ilovaga muvofiq qog'oz shaklda, pul mablag'larini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan imzolangan va Korxonaning muhri (agar mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan ro'yxat(lar)ni taqdim etish. Qog'oz ko'rinishidagi ro'yxatni taqdim etish bilan bir vaqtda, korporativ elektron pochta kanallari orqali Bankka xodimlarning ish haqi karta hisobraqamlariga o'tkazilishi uchun ro'yxatni (elektron fayl) taqdim etish. Elektron faylning formati va tuzilishi Bank tomonidan bir tomonlama belgilangan;

3.1.6. Bankka yuqoridagi 3.1.1., 3.1.2., 3.1.5-bandlarga muvofiq taqdim etilgan ma'lumotlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish. Ushbu ma'lumotlarda nomuvofiqliklar yuzaga kelganda, ustuvorlik Korxona tomonidan taqdim etilgan elektron ro'yxatlar hamda fayllarga beriladi;

3.1.7. Korxona O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega.

3.1.8. Korxona xodimlari (Mijozlar) bilan mehnat munosabatlari tugatilgani to'g'risida tegishli mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki tugatilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Bankni o'z vaqtida xabardor qilish.

3.2. Korxona quyidagilarga haqli:

3.2.1. Ushbu Oferta shartlariga muvofiq, Korxonaning yangi qabul qilingan xodimlari uchun karta hisobraqamlarini ochish ro'yxatlarini va Korxona xodimlarining karta hisobraqamlariga ish haqi o'tkazish reestrlarini mustaqil ravishda shakllantirish;

3.2.2. Korxona xodimlarining bank kartalarini olish uchun moddiy javobgar shaxsga ishonchnoma rasmiylashtirish;

3.2.3. Korxona O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

3.3. Bankning majburiyatlari:

3.3.1. Korxona ushbu Ofertani qabul qilgan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Korxona xodimlarining ish haqi uchun tranzit hisobraqamini ochish;

3.3.2. Korxona tomonidan 3.1.1. va 3.1.2.-bandlarda ko'rsatilgan shartlar bajarilgani, shuningdek Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli tekshiruv jarayonlari, jumladan, sanksion tekshiruv o'tkazilgani sharti bilan, har bir Mijoz (Korxona xodimi) nomiga 1 (bir) ish kuni ichida karta hisobvarag'i(lari)ni ochish va Korxona tomonidan taqdim etilgan ro'yxatga muvofiq, ushbu Ofertaning 3.1.2-bandiga asosan, 3 (uch) ish kuni ichida bank kartasi (lari)ni chiqarish.

3.3.3. Korxona xodimlarining karta hisobraqamlariga pul mablag'larini Korxona tomonidan ushbu Ofertaning 3.1.5-bandida ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilgan taqdirda o'tkazish. Korxona xodimlarining karta hisobraqamlariga pul mablag'larini o'tkazish Bankning amaliyot kuni davomida amalga oshiriladi. Bank g'ayrioddiy yoki shubhali operatsiya belgilari aniqlangan hollarda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq

tekshiruv o'tkazishni talab qiluvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda, qo'shimcha tekshiruv o'tkazish davri ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish jarayonini to'xtatib turishga haqli.

3.3.4. Ushbu Ofertada ko'zda tutilgan xizmatlarni ko'rsatishda bank siri saqlanishini ta'minlash;

3.3.5. Bankning aybi bilan noto'g'ri ma'lumotlar kiritilgan taqdirda, bu haqda Korxonadan yozma xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida kartalarni qayta chiqarishni o'z hisobidan amalga oshirish.

3.4. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Korxonadan bank kartalari ochish va xodimlarga bank kartalari chiqarish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirilgan hujjatlarni Bankka taqdim etishni talab qilish;

3.4.2. Korxonadan tranzit hisobraqami va xodimlarning karta hisobraqamlariga operatsiyalarni amalga oshirish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlarini Bankka taqdim etilishini talab qilish;

3.4.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilish maqsadida, shuningdek, Mijozga nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, Bank Mijozni tekshirishga, zarur qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rashga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda operatsiyani amalga oshirishni to'xtatib turishga yoki rad etishga haqli.

3.4.4. Korxona ushbu Oferta shartlarini bajarmagan taqdirda, bank kartalarini chiqarishni to'xtatish yoki rad etish;

3.4.5. Agar tijorat nuqtai nazaridan zarur bo'lsa, Bank tariflariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish. Bunday o'zgartirishlar to'g'risida xabarnoma o'zgartirishlar va qo'shimchalar kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun avval Bank filiallaridagi axborot stendlarida yangi tariflarni joylashtirish yoki Bank veb-saytida e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

3.4.6. Korxona xodimlarining ish haqini korxona xodimlarining karta hisobraqamlariga o'tkazish uchun korxona tomonidan reestr(lar) taqdim etilmagan, shuningdek kalendar oy oxirida korxonaning tranzit hisobraqamida qoldiq mavjud bo'lgan taqdirda, korxonani oldindan xabardor qilmasdan, tranzit hisobraqamidan Korxona xodimlarining ish haqini o'tkazish uchun mablag'larni korxonaning talab qilib olinguncha depozit hisobraqamiga qaytarish.

3.4.7. Mablag'larni tranzit hisobraqamiga o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomasi taqdim etilganida Korxonadan soliq va budjetga to'lanadigan to'lovlar bo'yicha to'lov topshiriqnomalarini taqdim etishni talab qilish.

3.4.8. Ushbu Ofertaga bir tomonlama o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish. Bunday o'zgartirishlar haqida xabarnoma ushbu o'zgartirishlar va qo'shimchalar kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin, Bank filiallaridagi axborot stendlarida yangi tahrirdagi Ofertani joylashtirish yoki Bank veb-saytida e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

3.4.9. Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega.

IV. Tomonlarning javobgarligi va nizolarni ko'rib chiqish tartibi

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatida, javobgar taraf O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ikkinchi tarafga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

4.2. Bank, xodimlarning karta hisobraqamlariga mablag'larning noto'g'ri o'tkazilishi uchun, agar ularning o'tkazilishi bo'yicha noto'g'ri tuzilgan reestr mavjud bo'lsa, shuningdek elektron reestrning qog'oz nusxasi bilan farqlanishi holatida javobgar emas va xodimlarning karta hisobraqamlariga o'tkazilgan mablag'larni Korxonaga qaytarmaydi. Bu holda zarar xavfi Korxona zimmasiga yuklanadi.

4.3. Tomonlar fors-major holatlarida, ya'ni favqulodda va oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar, shu jumladan: tabiiy ofatlar, isyonlar, fuqarolik tartibsizliklari, ish tashlashlar, qo'zg'olonlar, urushlar, amaldagi qonunchilikning o'zgarishi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ ko'rsatmalari tufayli ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlari ta'siriga tushgan tomon, ushbu holatlar yuzaga kelganligi va ularning davomiyligi haqida boshqa tomonni 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida tegishli davlat organi tomonidan berilgan Fors-major holatlar yuzaga kelganligi to'g'risidagi Sertifikatni taqdim etgan holda darhol xabardor qilishi shart. Yuqorida ko'rsatilgan 30 kunlik muddat ichida ushbu Sertifikat taqdim etilmagan taqdirda, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomon, ushbu Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.4. Shartnoma bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan nizolarni Tomonlar muzokaralar yo'li bilan o'zaro kelishuv tamoyillariga asoslanib hal qiladilar. Nizo yuzaga kelgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilish uchun taqdim etiladi.

4.5. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

V. Maxfiylikni ta'minlash talablari

5.1. Tomonlar ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan munosabatlar tufayli ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

5.2. Tomonlarning o'zaro roziligi bilan ushbu Shartnoma doirasida boshqa Tomonga, uning xodimlariga (shaxsga doir ma'lumotlar), ushbu Shartnomaning mazmuniga, uning bajarilish jarayoniga va olingan natijalarga tegishli ma'lumotlar, tijorat siri hamda bank siri hisoblanadigan ma'lumotlar maxfiy deb hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tijorat siri hisoblanmaydigan ma'lumotlar bundan mustasno. Olingan ma'lumot quyidagi shartlardan biriga javob bergan taqdirda maxfiy hisoblanmaydi va bunday ma'lumotni olgan Tomon mazkur Ofertaning ushbu moddasida belgilangan biror bir majburiyatga ega bo'lmaydi:

a) ma'lumotni uzatuvchi Tomonning qasdi, beparvoligi yoki ehtiyotsizligi natijasida uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa;

b) uzatuvchi Tomonning yozma ruxsati bilan e'lon qilishga ruxsat berilgan bo'lsa;

v) ma'lumot uchinchi shaxslarga vakolatli davlat organlarining qonuniy harakatlari natijasida, shuningdek boshqa uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, agar uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotning noqonuniy olinishi Tomonlarning beparvoligi yoki ehtiyotsizligi bilan bog'liq bo'lmasa.

5.3. Maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish, e'lon qilish yoki boshqa tarzda oshkor qilish faqat Tomonlarning kelishuvi asosida qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5.4. Maxfiylik shartlari ushbu Oferta shartlarini qabul qilish paytidan kuchga kiradi va ushbu Ofertaning 6.2-bandiga muvofiq Shartnoma bekor qilinmaguncha amal qiladi.

5.5. Maxfiylikni buzish natijasida yetkazilgan har qanday zarar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq aniqlanadi va qoplanadi.

VI. Boshqa shartlar.

6.1. Ushbu Shartnoma Korxona tomonidan Ofertaning 2.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali qabul qilingan paytdan kuchga kiradi va tomonlar yoki tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirgunga qadar amal qiladi.

6.2. Ushbu Shartnoma tomonlardan biri tarafidan boshqa tomonni kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun avval yozma ravishda xabardor qilish orqali bir tomonlama bekor qilinishi mumkin, shu bilan birga amaldagi to'lov majburiyatlari bajarilishi kerak.

6.3. Ushbu Ofertaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar Bank tomonidan ushbu Ofertaning 3.4.8-bandida qayd etilgan harakatlar bajarilgan taqdirda amal qiladi.

6.4. Bank bilan barcha munosabatlarda dam olish va bayram kunlari ish kunlari hisoblanmaydi.

6.5. Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan barcha boshqa holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

6.6. Ushbu Shartnoma tomonlaridan hech biri boshqa tomonning oldindan yozma roziligisiz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

6.7. Ushbu Oferta bo'yicha har qanday xabarnomalar va hisobotlar har ikkala Tomon tarafidan yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtirilishi kerak hamda ularni shaxsiy qo'lga topshirish, MBX tizimi yoki elektron pochta orqali yuborish orqali, yuboruvchi Tomonning vakolatli vakili tomonidan imzolangan holda, qabul qiluvchi Tomon tomonidan darhol tasdiqlangan taqdirda, tegishli tarzda yetkazilgan deb hisoblanadi.

6.8. Rekvizitlar, joylashuv, aloqa rekvizitlari o'zgargan taqdirda, Korxona 3 (uch) kalendar kun ichida Bankni yozma ravishda o'zgarishlar haqida xabardor qilishi shart. O'z navbatida Bank esa Korxonani yozma ravishda yoki elektron shaklda, ya'ni MBX tizimi yohud elektron pochta orqali xabardor qilishi shart.

6.9. Ushbu Oferta o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan. Agar ular o'rtasida tafovutlar bo'lsa, rus tilidagi matni ustuvorlik qiladi.